

RISK TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIY MAZMUNI

Ubaydullayeva Maftunaxon Bosit qizi

Millat Umidi Universiteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni, globallashtiruv, raqobatning keskinlashuvi, texnologik innovatsiyalar va moliyaviy tizimdagi o'zgarishlar biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar oldida yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda ko'plab xavf-xatar va noaniqliklarni ham yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolada biznesda uchraydigan turli xavf-xatarlar va ularni tizimli boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatlari keng yoritildi. Raqobat kuchayib borayotgan bozor sharoitida korxonalar uchun risklarni oldindan aniqlash, baholash va samarali strategiyalar yordamida bartaraf etish muhim omilga aylanmoqda.*

Kalit so'zlar: *risk, ehtimollik, xavf, og'ishlar, riskni boshqarish, risk funksiyalari, risk sabablari, riskni boshqarish afzalliklari.*

Аннотация: *Переход к рыночной экономике, глобализация, усиление конкуренции, технологические инновации и изменения в финансовой системе наряду с новыми возможностями создают для субъектов, занимающихся бизнесдеятельностью, множество рисков и неопределённостей. В данной статье подробно освещены различные риски, встречающиеся в бизнесе, а также теоретические и практические аспекты их системного управления. В условиях усиливающейся конкуренции на рынке для предприятий важным фактором становится заблаговременное выявление, оценка и эффективное устранение рисков с помощью стратегий.*

Ключевые слова: *риск, вероятность, опасность, отклонения, управление рисками, функции риска, причины риска, преимущества управления рисками.*

Abstract: *The transition to a market economy, globalization, intensified competition, technological innovations, and changes in the financial system are creating not only new opportunities but also numerous risks and uncertainties for entities engaged in business activities. This article provides a comprehensive overview of various types of risks encountered in business and the theoretical and practical aspects of their systematic management. In an increasingly competitive market environment, the early identification, assessment, and effective mitigation of risks through strategic approaches are becoming essential factors for enterprises.*

Keywords: *risk, probability, hazard, deviations, risk management, risk functions, causes of risk, advantages of risk management.*

KIRISH

Tadbirkorlik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra, har doim ma'lum darajadagi risklar bilan bog'liq bo'ladi. Investitsiya kiritish, yangi mahsulot ishlab chiqarish, bozorga yangi chiqish, moliyaviy qarorlar qabul qilish kabi faoliyat turlari doim noaniqlik va

ehtimollarga asoslanadi. Shunday ekan, risklarni oldindan aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki umumiy strategik rivojlanishni ham ta'minlaydi.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan davlatlarida korporativ boshqaruvda risk menejmenti alohida tizim sifatida shakllangan bo'lib, kompaniyaning asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Mamlakatimizda ushbu yo'nalishda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlatning iqtisodiy siyosatida xususiy sektorni rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va biznes muhitini yaxshilash asosiy yo'nalishlardan biri etib belgilangan. Shu bilan birga, bugungi sharoitda biznes subyektlari uchun eng dolzarb muammolardan biri bu – risklarni to'g'ri boshqarish tizimini shakllantirish va uni strategik darajada takomillashtirish masalasidir.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab tadbirkorlik subyektlari risklarni yetarli darajada hisobga olmaydi yoki ularga noto'g'ri yondashadi. Bu esa investitsiyalarning qisqarishi, foydaning kamayishiga yoki korxonalar faoliyatining to'xtashiga olib kelmoqda. Shu sababli, biznesda risklarni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish, amaliy misollar orqali mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni yechimini topish hamda ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Risk uzoq vaqtdan beri turli fanlarda, birinchi navbatda matematika va mantiqda tadqiqot mavzusi bo'lib kelgan.

1654-yildan boshlab texnik va ijtimoiy jarayonlarning ehtimoliy tabiati haqida nazariy g'oyalar ishlab chiqilgan, bu raqamlar yordamida noaniq ravishda aniqlangan natija bilan vaziyatda qaror qabul qilishga imkon berdi.

1713-yilda Bazel universiteti matematik professori Yakob Bernulli teoremani isbotladi, unga ko'ra, ikkita natija bilan tasodifiy tajriba ko'p marta takrorlanganida, nisbiy muvaffaqiyat darajasi bitta sinovda muvaffaqiyat qozonish ehtimoliga yaqinlashadi.

1730-yilda A. de Muavre oddiy taqsimot shaklini yaratdi va riskni hisoblashning zamonaviy texnikasining muhim vositasi bo'lgan standart og'ish tushunchasini kiritdi [1].

1875-yilda F. Galton regressiyani yoki "normaga" qaytishni kashf etdi.

1725-yilga kelib, matematiklar umr ko'rish jadvalini to'zish uchun bir-biri bilan raqobatlashdilar va Britaniya hukumati budjetni to'ldirish uchun umr bo'yi ijarani sotdi.

18-asrning o'rtalariga kelib Londonda dengizchilikni sug'urtalash operatsiyalari faol ravishda olib borildi. Asta-sekin, "risk" toifasi markaziy statistika sifatida o'rganila boshlandi va asosan yangi tahdidlarni o'rganish uchun yaratilgan, matematikaning bo'limlari (ehtimollik nazariyasi, o'yin nazariyasi, operatsiyalarni o'rganish, falokat nazariyasi, qarorlar nazariyasi, ehtimoliy va ko'p jihatdan mantiq).

Risklarni boshqarish sohasida T. Bayesning nazariyasi alohida o'rin tutadi, unga ko'ra ma'lum bir amalga oshirilgan voqea uchun aynan shu sabab tufayli yuzaga kelgan ehtimolni hisoblash mumkin. Iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi sug'urta, birja operatsiyalari va boshqalarni tartibga soluvchi huquqiy normalar va qoidalarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqardi. Shu munosabat bilan "risk" tushunchasi huquqiy va iqtisodiy fanlar tomonidan o'rganilgan.

Iqtisodiyotni fanga aylantirishga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatuvchi Richard Kantilon tobora ko'proq tan olinmoqda, "Savdo tabiati to'g'risidagi" asarida (1755) tovar ma'lum narxda xarid qilinishi va noma'lum narxda sotilganda bozor talab va taklifining beqarorligini hisobga olish zarurligi to'g'risida ta'kidladi. Adam Smit, Xalqlar farovonligining tabiati va sabablarini o'rganishda (1776), hatto eng oddiy daromadlilik darajasiga erishish ham ko'proq yoki kamroq risk bilan bog'liqligini yozdi. Iqtisodiy nazariyaning klassiklari (Mill, Sey) tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni qoplash uchun tadbirkorlik faoliyati daromadlari tarkibidagi "risk to'lovi"ni ajratib ko'rsatdi.

I. Tyunen "Izolyatsiya qilingan davlat" (1850) asarida birinchi marta innovasion tavakkalchilik mohiyatini o'rganishga murojaat qildi. Y. Shumpeter "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" (Tadbirkorlik faoliyati, kapital, kredit, foizlar va vaziyatni tadqiq etish) (1912) nomli o'z ishida "risk mukofoti"ni ishlab chiqarishning "xarajatlari" (Ausgang) sifatida ko'rib chiqdi, va iqtisodiy riskning ta'sirini "kamaytirish" yoki "yo'q qilish" imkonini beruvchi tadbirkorlikni nazarda tutdi. F. Nayt "Risk, noaniqlik va foyda" kitobida (1921) I. Tyunenning hisoblab chiqilgan va hisoblab bo'lmaydigan risk o'rtasidagi farqlar to'g'risidagi xulosasini takomillashtirdi va birinchi marta "risk" va "noaniqlik" tushunchalarini farqlanadi [2].


METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi biznesda risklarni boshqarish uni strategiyasini takomillashtirishda iqtisodiy samarasini oshirish va yanada rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlashdir. Mavzuni ilmiy o'rganish, statik tahlillar, mantiqiylik, deduksiya va induksiya usullaridan foydalanib tahlil qilindi. Tadqiq etish jarayonida turli xil adabiyotlar va maqolalar tahlilidan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Iqtisodiy adabiyotlarda riskni aniqlashning uchta uslubiy yondashuvi mavjud (1-rasm).

Biznes faoliyatida risklar har qanday vaqtda, turli shakllarda yuzaga kelishi mumkin: moliyaviy, huquqiy, marketing, texnologik va boshqalar. Risklarni boshqarish esa tashkilotning bu xavflarni aniqlashi, baholashi, nazorat ostiga olishi va minimal darajaga tushirishi uchun qo'llaniladigan yondashuvdir. Zamonaviy korxonalar uchun risklarni boshqarish strategik boshqaruvning ajralmas qismiga aylangan. U kompaniya barqarorligini, ishonchliligini va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi.



Riskni quyidagicha izohlash mumkin:

- Noaniqlik – kelajakdagi hodisalar oldindan aniq prognoz qilinmasligi;
- Ehtimollik – zarar yoki foydaning yuzaga kelish imkon darajasi;
- Natija – salbiy (zarar, foyda kamayishi) yoki ijobiy (kutilganidan ortiq foyda).

Misol: biror tadbirkor yangi mahsulot chiqarishga qaror qiladi. Agar bozorda talab bo'lsa – foyda qiladi, aks holda zarar ko'radi. Bu holat – iqtisodiy riskdir.

Risk salbiy tushuncha emas va juda ham ahamiyatli tushunchalardan biri. Sababi u harakat va natijaning ajralmas qismi bo'lib, quyidagilarga olib keladi:

- Yangilik va o'sish imkoniyati (risk bo'lmasa, foyda ham bo'lmaydi);
- Qaror qabul qilishni ehtiyotkorlik bilan olib borish;
- Zararlarni oldindan aniqlab, cheklash imkoniyati; - Strategik rejalashtirishni chuqurlashtiradi.

Shuning uchun zamonaviy menejmentda risklarni boshqarish – muhim faoliyatdir.

1-jadval Risk turlari-klassifikatsiyasi

Turi	Tavsif
Tabiiy risk	Zilzila, dovul, suv toshqini, qurg'oqchilik kabi tabiiy ofatlar
Ijtimoiy risk	Ishsizlik, noroziliklar, demografik o'zgarishlar
Texnik risk	Uskuna ishdan chiqishi, texnik nosozlik
Iqtisodiy risk	Narx o'zgarishi, to'lovga qobiliyatsizlik, inflyatsiya

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

1. Kelib chiqishiga qarab, risk turlari klassifikatsiyasi quyidagilar:

Tabiiy risklar: Bu, iqtisodiy faoliyatga ta'sir qiluvchi, tabiiy hodisalar yoki atrofmuhit omillari bilan bog'liq bo'lgan xavflardir. Ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: tabiiy ofatlar, iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolar va boshqalar.


Ijtimoiy risklar: Bu, iqtisodiy faoliyatga ta'sir qiluvchi, jamiyatdagi o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlar va siyosiy omillar bilan bog'liq bo'lgan xavflardir. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: siyosiy beqarorlik, ijtimoiy norozilik, demografik o'zgarishlar va boshqalar.

Texnik risklar: Bu, texnologik taraqqiyot, yangi texnologiyalarni qo'llash, texnik xizmat ko'rsatishdagi muammolar yoki texnologik eskirish bilan bog'liq bo'lgan xavflardir. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: texnologik eskirish, innovatsion risklar, IT xavfsizlik risklari va boshqalar.

Iqtisodiy risklar: Bu, iqtisodiy o'zgarishlar, inflyatsiya, deflyatsiya, valyuta kurslarining o'zgarishi, foiz stavkalari yoki bozorning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan xavflardir. Ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: inflyatsion risk, deflyatsion

risk, valyuta kursi riski, foiz stavkalar riski va bozor o'zgarishi riski.

2. Zararning miqdoriga qarab risk turlari 2 - rasmda keltirilgan:



2_rasm. Zararning miqdoriga qarab risk turlari

2

- Qabul qilinadigan risk – bu biznes tomonidan ongli ravishda qabul qilinadigan, potensial zarari kichik yoki nazorat ostida bo'lgan risklardir. Ular odatda qaror qabul qilish jarayonida inobatga olinadi va boshqarish strategiyasi mavjud bo'ladi;

- Qabul qilib bo'lmaydigan risk – bu kompaniya uchun juda katta zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, qabul qilinishi mumkin bo'lmagan xavfdir. Bunday risklar ko'pincha biznesni butunlay izdan chiqarishi mumkin.



3_rasm. Risk shakllari

3

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Moliyaviy risklar quyidagilarda namoyon bo'ladi. Kredit oluvchilarning qarzni o'z vaqtida qaytarmasligi (debitorlik qarzlari ortishi), valyuta kurslarining o'zgarishi tufayli zarar ko'rilishi, foiz stavkalari oshib, kredit xarajatlari ko'payishi.

Operatsion risklar kuchda namoyon bo'ladi: ichki biznes jarayonlaridagi uzilishlar (masalan, tizim zanjiridagi nosozliklar), texnologik muammolar (masalan, axborot tizimlarining ishdan chiqishi), hamda firibgarlik tomonidan sodir etilgan qonunbuzarliklar.


Bozor risklari paydo bo'lishida namoyon bo'ladi: bozor narxining sezilarli darajada o'zgarishi, harakatlanuvchilarning bozorga kirib kelishi yoki agressiv marketing yuritishi, talabining kamayishi, va bozor fondlaridagi o'zgarishlar.

Huquqiy risklar paydo bo'lishida namoyon bo'ladi: qonunchilikdagi o'zgarishlar tufayli zararlar yoki yo'qotishlar mumkin bo'lgan tuzatishlar, soliq organlari yoki boshqa nazorat idoralari tomonidan tuzilgan yoki yo'q qilinishi.

Reputatsion risklar kuchda namoyon bo'ladi: ijtimoiy omillarda yoki OAVda kompaniya haqidagi kasallik xabarlar, xizmat sifati yomonlashuvi yoki korxonaga bo'lgan loqayd munosabat tufayli brend obro'sining yo'qolishi.

Tashqi risklar kuchayib borayotganida namoyon bo'ladi: inflyatsiya darajasining ortishi, iqtisodiy barqarorlar, siyosiy beqarorlik, pandemiyalar, xalqaro savdo korxonalari yoki geosiyosiy tangliklar tufayli kompaniya faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi.

³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



4-rasm. Biznesdagi asosiy risk turlari va ularning nisbiy ulushi (%) da³³

Bozorda tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishda noaniqlik darajasini pasaytirish, shubhasiz, ishlab chiqarish va moliyaviy menejment tizimida ham,

³³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

marketing faoliyati davomida ham, korporativ ijtimoiy mas'uliyat dasturlari doirasidagi talablarni qondirishda ham optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilishga olib keladi.

Moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish risklarni boshqarish tashkilotdagi to'siqlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, bu mablag'larni to'g'ri qayta taqsimlashga va tashkilotning qo'shimcha investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga yordam beradi.

Risk darajasini pasaytirish resurslarni tejash bilan bevosita bog'liq. Misol tariqasida, kadrlar almashinuvi riskini kamaytirishni keltirishimiz mumkin, bunga erishish tashkilotda professional kadrlar bilan ta'minlash zarurligini optimal hisoblash imkonini beradi.

Maqsadli auditoriya bilan aloqani kuchaytirishni talab etadi. Tashqi muhit sub'ektlari bilan o'zaro munosabatlardagi riskni kamaytirish biznes jarayonlarini optimallashtirish va sinxronlashtirishga erishish, o'sish strategiyasini amalga oshirishda tashkilotning imkoniyatlarini oshirish imkonini beradi.

XULOSA

Umumiy holda aytish mumkinki, risk boshqaruvini samarali yo'lga qo'yilsa, risk omillari identifikatsiya qilinib, risk oqibatlari o'rganilsa, shuningdek, ko'rilishi mumkin bo'lgan zarar (foyda) hajm va qiymat birliklarida o'z ifodasini topsa, korxonaga uchun samarali qarorlarni qabul qilinishiga asos bo'ladi. Fikrimizcha, korxonaning umumiy barqarorligi ishlab chiqarish samaradorligi, har bir bo'lim faoliyatining muvofiqligi va optimal faoliyat yuritishi hamda boshqa ko'plab ko'rsatkichlar qatori korxonaning risk boshqaruvi samaradorligiga ham bevosita bog'liqdir.

Risklarni boshqarishning strategik ahamiyati shundaki, u nafaqat kompaniyani ehtimoliy yo'qotishlardan himoya qiladi, balki uni ichki va tashqi muhitdagi o'zgarishlarga tayyorlaydi. Bunday strategiyalar orqali korxonaga moliyaviy intizomni mustahkamlaydi, investorlarga ishonch uyg'otadi va raqobatchilardan ajralib turadi. Shu sababli, risk menejment zamonaviy kompaniyalar uchun ixtiyoriy tanlov emas, balki zarur strategik vositadir.

Risklarni boshqarishning asosiy maqsadi — yo'qotishlarni minimallashtirish, barqarorlikni ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va ishonchli qaror qabul qilish uchun zarur asos yaratishdan iborat.

Risklarni boshqarishning asosiy vazifalari esa: risklarni aniqlash, baholash, ustuvorlik bo'yicha tartiblash, qarshi choralarini ishlab chiqish, monitoring va tahlilni o'z ichiga oladi.

Dunyo tajribasida ko'plab yetakchi kompaniyalar (masalan, Apple, Toyota, Amazon) risklarni boshqarish strategiyalarini o'z faoliyatiga joriy etgan holda muvaffaqiyatga erishgan.

Xalqaro miqyosda esa ISO 31000, COSO va ERM kabi tizimlar korxonalariga risklarni tizimli va kompleks yondashuv asosida boshqarishga yordam beradi.

Shunday qilib, zamonaviy biznes uchun risk menejment bu faqat xavfsizlik mexanizmi emas, balki uzoq muddatli muvaffaqiyat, barqaror o'sish va global raqobat muhitida omon qolishning kalitidir.

Har bir tadbirkor va kompaniya risklarni boshqarishni strategik ustuvor yo'nalish sifatida belgilashi va amaliyotda joriy etishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.G. Umarxodjayeva, R.D. Alladustov ning "Korporativ risklarni boshqarish" Toshkent Iqtisodiyot nashriyoti, 2019-yil. 10-11-bet.
2. Kaplan, R. & Mikes, A. (2012). Managing Risks: A New Framework. Harvard Business Review.
3. Merriam-Webster Dictionary. (n.d.). Risk.
<https://www.merriamwebster.com/dictionary/risk>
4. Гранатуров В.М. Экономический риск: сущность, методы измерения, пути снижения: Учебное пособие. — 2-е изд., перераб и доп. — М.: Издательство «Дело и Сервис», 2002. — 160 с.
5. Макарова Н.Н. Риск-менеджмент: учебное пособие – Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2009. – 170 с
6. Зирченко Л. А. Совершенствование системы управления рисками в процессе развития предпринимательских структур. Дисс. канд. эконом. наук. – Санкт-Петербург, 2019. – 165 с.
7. Севрук В.Т. Риски финансового сектора Российской Федерации: практ. пособие. – М.: Финстатинформ, 2001. - 175 с.
8. Махмудова Н.Ж. Оценки рисков промышленного предприятия //Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования. – 2021. – С. 18.
9. McKinsey & Company "The State of Organizations 2023" hisobotidan.